

XLODVIG DAVRIDA FRANK QIROLLIGI

G`ulomova Zahro Davlatjon qizi

Nizomiy nomidagi O`zbekiston Milliy pedagogika universiteti Tarix fakulteti 202-guruh talabasi  
(+998947463353) zahrog`ulomova40gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada frank qabilalari, ularning kelib chiqish tarixi, frank atamasiga ta`rif beriladi. Dastlabki frank qabilalari, ularning turmush tarzi, xo`jaligi, mashg`ulotlari, ularda yer egaligi haqida ko`plab ma`lumotlar aytib o`tilgan. Frank qirolligining tashkil etilishi, uning asoschisi haqida, davlat boshqaruv shakli, harbiy yurishlari yozilgan. Frank qirolligining Xlodvig davrida erishgan yutuqlari, jahon tarixida tutgan o`rni haqida aniq faktlar keltiriladi. Shu bilan birga Xlodvig davrida Sali haqiqatining yaratilishi, undagi moddalarga ketma-ket to`xtalib o`tiladi. Frank qabilalarining urug`chilik tuzumi haqida ham ma`lumotlar keltirilgan.

**Tayanch so`zlar:** Frank, Frank qirolligi, dehqonchilik, chorvachilik, urug`chilik tizimlar, harbiy boshqaruv, Sali haqiqati.

**Аннотация:** В статье описываются франкские племена, история их происхождения и дается определение термина «франк». Приводится обширная информация о ранних франкских племенах, их образе жизни, экономике, занятиях и землевладении. Описывается организация Франкского королевства, его основатель, форма правления и военные кампании. Приводятся конкретные факты о достижениях Франкского королевства в период правления Хлодвига и его месте в мировой истории. В то же время последовательно рассматривается создание Салической правды во время правления Хлодвига и ее статьи. Также дается информация о системе семеноводства франкских племен.

**Ключевые слова:** франки, Франкское королевство, земледелие, животноводство, системы семеноводства, военное управление, Салическая правда.

**Annotation:** This article describes the Frankish tribes, their history of origin, and the definition of the term Frank. A lot of information is given about the early Frankish tribes, their lifestyle, economy, occupations, and land ownership in them. The organization of the Frankish kingdom, its founder, the form of government, and military campaigns are written about. The achievements of the Frankish kingdom during the reign of Clovis, and its place in world history are given specific facts. At the same time, the creation of the Sali truth during the reign of Clovis, and its articles are successively discussed. Information is also provided about the seed system of the Frankish tribes.

**Key words:** Frank, Frankish kingdom, farming, animal husbandry, seed systems, military administration, Sali truth.

Qadimgi Rim imperiyasida tuzilgan varvar qirolliklari ichida eng katta nufuzga ega bo`lgani Frank qirolligi edi. Franklar vaqtlar o`tishi bilan burgund qabilalarini bo`ysundirdilar. Galliyada yashab turgan vestgot qabilalarini surib chiqardilar. Italiyadagi

langobardlar yerlarini zabt etdilar va Reynning nargi tomonida yashovchi barcha german qabilalarini o`zlariga itoat ettirdilar. Frank qabilalari qadimdan Reyn daryosi atrofida yashab kelishgan. Buyuk german tarixchisi Tatsitning "Germaniya" nomli asarida franklar turli xil, jumladan, xamavlar, sukambrlar, batavlar kabi bir qancha nomlar bilan nomlanadi. "Frank" degan nom (bu so`zni "jasur", "erkin" deb tarjima qilishadi) III asrning o`rtalaridagina paydo bo`lib, qandaydir bitta qabila emas, balki Reynning o`rta va quyi oqimlarida yashagan butun bir gruppaga german qabilalariga taalluqli umumiy bir nom edi, bu qabilalar dastlab Reyn daryosining o`ng qirg`og`ida yashar edilar<sup>2</sup>. Dastlabki frank qabilalari birlashgan xalq emas, har biri o`ziga xos, alohida qabilalarning erkin uyushmasiga ega bo`lgan. Ba`zi olimlar ularni uyushmadan ko`ra "Qabilalar to`dasi" deb atashni to`g`riroq deb hisoblaydi. Chunki ular faqat hujum yoki mudofaa harakatlaridagina birlashadi. Biroq ular kuchini birlashtirganda, umumiy ma`noda tajovuskor va jasur ma`nosini anglatuvchi franklar nomi bilan tanilgan. Franklar bilan bog`langan german qabilalarining ba`zilari chamavi, chattuari, brukteri, salyan, ripuar va boshqa urug`larni o`z ichiga oladi. Salyan va ripuar urug`lari oxir-oqibat hukmron qabilaga aylangan. Miloddan avvalgi I asrda Yuliy Sezarning Galliyani bosib olishi natijasida, Reyn daryosi Rim dunyosi chegarasiga aylandi. Rimliklar germanlarning o`z hududiga kirishig yo`l qo`ymagan. Ammo uchinchi asr inqirozi davrida Rim parchalana boshlanadi. Bu voqea german qabilalariga Rimga kirish imkonini berdi. Ushbu qabilalardan biri franklar bo`lib, ular milodiy III asrda Rim hududiga kirgan. Ba`zi tarixchilar franklarning kelib chiqishini Troya urushi bilan bog`laydi. Afsonaga ko`ra qirol Priam 12000 troyan qochqinlarini Pannoyaga olib kelgan va u yerda Sikambriya shahriga asos solgan. Ayrimlari shu shaharda qolgan, boshqalari esa Fransio ismli rahbar ortidan Reynga qadar ergashib borib, u yerda franklar nomi bilan tanilgan. Troya bilan bog`liqlik, ehtimol, franklar uchun troyaliklardan kelib chiqqanini da`vo qilgan rimliklar bilan teng ravishda nasl-nasab berishga urinish bo`lgan. Bu tarix kelish chiqishi, albatta, afsonaviy bo`lsada, Yan Vud kabi ba`zi zamonaviy olimlar franklar katta migratsiya qilgani va Reynlandda paydo bo`lganiga ishonish uchun asos yo`qligini ta`minlaydi.

Milodning IV asrlarida franklar Rim imperiyasining Galliya viloyatiga kelib o`rnashdi. V asrda G`arbiy Rim imperiyasining ag`darilishi bilan, fraanklar o`z hududlarini kengaytirib, davlat tashkil eta boshladi. Lekin bu davlatda urug`chilik tizimi saqlanib qoldi." Frank qabilalari ittifoqiga V asr oxiridan merovey urug`idan bo`lgan Xlodvig (481-511yy) boshchilik qilgan"<sup>3</sup>. Hokimiyat uchun bo`lgan kurashda Xlodvig dastlab o`z raqiblarini, so`ng qarindoshlarini ham qirib yubordi. U 486-yilda Rimning Galliyadagi so`nggi noibi Siagriy qo`shinini yengib, Suasson shaxrini egalladi. Shu bilan birga Xlodvig katta va muhim hudud bo`lgan Sena va Luara daryolari havzalarini zabt etib, franklarga mo`l-ko`l yerni taqsimlash imkonini bera olgan. Daryolari juda ko`p, yeri serhosil, dehqonchilik uchun qulay va qayinzor o`rmonlarga boy bo`lgan keng, lekin rimliklar vaqtida huvullab qolgan bu hududga franklar boshdan oyoq ko`chib kela boshladi. Keyinchalik esa burgund va aleman qabilalarini bo`ysundirib, to`lovga tortdi. Hatto Puate jangida vestgotlarni mag`lub etib, Akvitanianing ham egalladi. O`z hokimiyatini mustahkamlash, rim-gall zodagonlari va ruhoniylarining qo`llashiga erishish maqsadida

<sup>2</sup>Semenov.V.F "O`rta asrlar tarixi". "O`qituvchi" nashriyoti, Toshkent-1973.

<sup>3</sup> Salimov T.O` Jahon tarixi (Yevropa mamlakatlari tarixi V-XV asrlar). Toshkent "Universitet"-2014.

Xlodvig drujinasi jangchilari bilan xristian-katolik dinini qabul qildi. Keyinchalik boshqa frank qabilalari ham xristian diniga o'ta boshlashdi. Xristianlikning qabul qilinishi Franklar qirolligining yanada kuchayishiga turtki bo'ldi. Galliya va Rimdagi e'tiborli mahalliy ruhoniylar Xlodvigni va boshqa Frank qirollarini zo'r berib qo'llab-quvvatladi." Bu voqea frank qabilalarining Galliya janubidagi qolgan yerlari-Vestgotiya va Burgundiyani bo'sundirishini ancha osonlashtirib, franklarning o'z orasidan ham qirol hokimiyati ta'sirining ortishiga yordam berdi"<sup>4</sup>. Xlodvig qolgan barcha sali va ripuar qirollarini asta-sekin qirib, yangi qirollikning yakkayu-yagona qirol bo'ldi. Uning davrida Reynning nargi tomonidagi yerlardan tashqari, Galliyaning to'rt dan uch qismi Franklar davlatiga tegishli edi.

Buyuk german tarixchisi Grigoriy Turskiy o'zining "Franklar tarixi" asarida Xlodvigning katolik dinini qabul qilishini olqishlar ekan, bu tadbir uning g'alabalari asosiy omili ekanini ta'kidlaydi. Ayni paytda muallif Xlodvigni makkor va shavqatsizligini yashirmaydi. U Xlodvigning ripuarlar hukmdorining o'g'liga, otasi o'lsa o'rnini egallashi tarafdori ekanligini bildirishi, reja amalga oshganidan so'ng so'zidan qaytib, padarkushni qatl ettirib, ripuarlarni o'z hukmiga olganini yozadi. Ammo Xlodvigning bu ishini ham Turskiy "Qirolning dushmanlari ko'pligi, davlat sarhadlarini kengaytirish uchun qilgani, xudo xuzurida vijdoni to'g'ri hamda unga yoqadigan ishlarni amalga oshirayotgani"<sup>5</sup> uchun oqlaydi. Ammo Xlodvig davrida frank qabilalari xali svilizatsiya ta'siri yetarli bo'lmagan varvar qabilalaridan bo'lgan. Ularning tashqi qiyofasi, fe'l-atvori, Galliya aholisini daxshatga solgan. Franklar xristianlik dinini qabul qilsa ham, ammo, uzoq vaqt davomida o'zlarining qabilaviy dinlarini, udum-marosimlarini unutishmagan. Tarixchi Prokopiyy franklar haqida: "Bu varvarlar o'ziga xos xristianlardir. Ular o'zlarining ilgargi dinlaridan ko'p narsani saqlab qolganlar, odamlarni qurbonlik qilish, afsungarlik, folbinlikka tez-tez murojat etish, cherkov taqiqlariga qaramasdan, frank qirollarida ko'pxotinlik ham oddiy xol"-deb yozadi<sup>6</sup>. Frank qabilalari o'zlarining sevimli qurollari: qilich, nayza, changaklari, bir yoki qo'sh tishli jang boltalaridan moxirona foydalanishgan. Ular o'zaro mojarolarni hal etishda ham qurollaridan foydalanishgan. Bu qabilalarda qonli qasos, xun olish udumi uzoq vaqt saqlanib qolgan.

Franklar hayoti, xo'jaligi, turmush tarzi haqida ma'lumot beruvchi manbalardan biri "Sali haqiqati" hisoblanadi. "Sali haqiqati" frank qabilalarining V asr oxiri - VI asr boshlaridagi ijtimoiy tuzumi, sud soxasidagi rasm-qoidalari to'plami bo'lib, Xlodvig zamonida, uning podsholigining oxirgi davrida 500-yillarda yozilgan. "Sali haqiqati"ga asoslanib (Lex Salia), franklarning asosiy mashg'uloti dehqonchilik bo'lgan degan xulosaga kelish mumkin. Bu kitobda yozilgan bir qancha moddalar franklarning ekin sirlari, turli xildagi dehqonchilik qurollari, ish hayvonlari bo'lganligidan, boshqali o'simliklar bo'lganligidan dalolat beradi. Ularning xo'jaligida chorvachilik (ayniqsa, chorva boqish) ham katta rol o'ynagan. Shu bilan birga baliqchilik, asalarichilik, bog'dorchilik haqida ma'lumotlar keltirilgan. "Sali haqiqati"da yerni sotish, sotib olish to'g'risida, uni birovga in'om qilish yoki vasiyatga muvofiq boshqa kishiga topshirish haqida hech qanday ma'lumot berilmagan. Bu davrda ularda yer xususiy mulk emas edi. Yer jamoa

<sup>4</sup>www.ziyouz.com kutubxonasi

<sup>5</sup> Salimov T.O' Jahon tarixi (Yevropa mamlakatlari tarixi V-XV asrlar). Toshkent "Universitet"-2014.

<sup>6</sup> https://arxiv.uz

tashkilotlarining mulki hisoblangan. “Sali haqiqati”da oʻrmon va yaylovdan, suvdan birgalikda foydalanish haqida ham maʼlumotlar mavjud. Qishloq jamoalari oʻz hayotining ilk bosqichida urugʻchilik tizimiga xos boʻlgan belgilarga ega edi. Urugʻchilik tizimiga koʻra yer urugʻdan tashqariga chiqib ketmasligi uchun yerni ayollarga berish yoki qoldirish taqiqlangan. Farzandsiz frank oʻlsa, uning yeri aka-ukalariga va oʻzining urugʻidagi boshqa erkak qarindoshlariga oʻtar edi. Biroq “Sali haqiqati” urugʻchilik tizimining yemirila boshlanganidan ham dalolat bergan. Bu qabilalarda mulkiy tabaqalanish yaqqol koʻrinib turgan. Birinchi oʻrinda qirol drujinachilari turib, ularning xuni 600 solid<sup>7</sup> belgilangan. Oddiy franklar uchun faqat 200 solid toʻlanar edi. Qulni oʻldirgani uchun quldorga 30 solid berilgan. Shu bilan birga franklarda ogʻir haqorat qoʻrqqoqlikda ayblash boʻlgan.”Sali haqiqati”ga koʻra erkin frankni asossiz ayblash, jangda qalqonni tashlashga tenglashtirilgan.

Frank qirolligi Xlodvig davrida ham oʻzining qabilalar konferensiyasi koʻrinishini yoʻqotmagan. Dastlabki qirollar, eng avvalo, xarbiy yoʻlboshchilar boʻlishgan. Franklar Galliyadagi shaxar va qishloqlarni talashgan. oʻljaga olingan mol-mulklar, asirga olingan kolonlar va qullar taqsimlangan. Uning davrida davlat yuksalgan. Xlodvig vafotidan keyin davlat tez-tez boʻlinib tursa ham, ammo, chegaralar kengayishda davom etdi. VI asrda yani Xlodvig va uning vorislari davrida Frank qirolligi barcha varvar qirolliklari ichida eng kattasi edi.

Xlodvig Franklar davlati tarixida beqiyos oʻrin tutgan shaxs hisoblanadi. U turli frank qabilalarini biralshtirib, yagona markazlashgan davlat barpo etdi va shu orqali Gʻarbiy Yevropada keyinchalik shakllanadigan qudratli monarxiyaning poydevorini qoʻydi. Uning xristianlik dinini qabul qilishi diniy va siyosiy jihatdan katta ahamiyatga ega boʻlib, u cherkov bilan aloqa oʻrnatdi va oʻz hokimiyatining qonuniyligini mustahkamladi. Shuningdek, u Rim huquqi anʼanalariga asoslangan qonunlar tizimini joriy etib, davlat boshqaruvida tartib va adolatni taʼminlashga harakat qildi. Xlodvigning siyosiy, diniy va harbiy faoliyati Franklar davlatining mustahkamlanishida va Yevropa oʻrta asr tarixining shakllanishida muhim bosqich boʻldi. U yaratgan davlat keyinchalik Karolinglar sulolasi davrida yanada yuksalib, Yevropa siyosiy xaritasining rivojiga asos boʻlib xizmat qildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Grigoriy Turiskiy “Istoriya Frankov”.Moskva “Nauka”-1987.
- 2.Semenov. V.F “Oʻrta asrlar tarixi”.Oʻqituvchi nashriyoti, Toshkent-1973.
- 3.Salimov.T.Oʻ. Jahon tarixi (Yevropa mamlakatlari V-XV asrlarda). Toshkent “Universitet”-2014.

<sup>7</sup> Solid - Rim va Vizantiyadan chiqqan oltin tanga boʻlib, IV-VI asrlarda franklar oʻrtasida ham yurgan.